

SHAXSIY SUG'URTANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIY TAJRIBASI

Bazarov Zakir Xonqulovich

*PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Sug'urta ishi" kafedrası dotsenti, Toshkent, O'zbekiston. Email: b.zakir@tsue.uz
ORCID: 0009-0006-8004-0644*

FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING PERSONAL INSURANCE

Bazarov Zakir Khankulovich

*PhD, Associate Professor, Department of Insurance, Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan. Email: b.zakir@tsue.uz
ORCID: 0009-0006-8004-0644*

JEL Classification: E1,M1

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda shaxsiy sug'urtani rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan bo'lib, Germaniya, Yaponiya, AQSh, Shvetsiya kabi rivojlangan mamlakatlar misolida tartibga solish mexanizmlari, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modeli, aholining sug'urtaga qamrovi darajasi va innovatsion yondashuvlar o'rganilgan. Xorijiy tajriba asosida shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy samaradorligini oshirish, fuqarolarning ishonchini mustahkamlash va ijtimoiy himoya tizimini diversifikatsiyalash yo'llari aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlardagi ilg'or amaliyotlarni moslashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish zarurligi asoslab berilgan.

Abstract: This scientific work analyzes the experience of foreign countries in the development of personal insurance, and on the example of developed countries such as Germany, Japan, the USA, and Sweden, regulatory mechanisms, a model of cooperation between the public and private sectors, the level of insurance coverage of the population, and innovative approaches are

studied. Based on foreign experience, ways to increase the economic efficiency of personal insurance, strengthen the trust of citizens, and diversify the social protection system are identified. According to the results of the study, the need to adapt advanced practices in foreign countries, accelerate digitalization processes, and increase financial literacy in the development of the insurance market of Uzbekistan is justified.

Калит сўзлар: Shaxsiy sug'urta, Sug'urta bozori, Xorij tajribasi, Davlat-xususiy hamkorlik, Moliyaviy savodxonlik, Sug'urtaning tartibga solinishi, Sug'urta mukofoti, Aholi qamrovi, Ijtimoiy himoya, Raqamlashtirish, Innovatsion yondashuvlar, Sug'urta siyosati, Sug'urta turlari, Xalqaro tajriba.

Keywords: Personal insurance, Insurance market, Foreign experience, Public-private partnership, Financial literacy, Insurance regulation, Insurance premium, Population coverage, Social protection, Digitalization, Innovative approaches, Insurance policy, Types of insurance, International experience.

Kirish. Global moliyaviy tizimda shaxsiy sug'urta eng muhim moliyaviy xavflarni kamaytiruvchi vositalardan biri

hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu sohaning barqaror va samarali faoliyat yuritishi davlatning to'g'ri siyosati, tartibga solish mexanizmlari va bozor ishtirokchilarining faolligi bilan bog'liq. O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirishda xorijiy tajriba tahlili alohida dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy sug'urta tizimi uzoq yillar davomida sug'urta sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib kelmoqda. Biroq, so'nggi yillarda iqtisodiy barqarorlikning yetishmasligi, inflyatsiya bosimining yuqoriligi, soliq yuki, aholining va tadbirkorlik subyektlarining bo'sh mablag'larining cheklanganligi, shuningdek, moliyaviy institutlarga nisbatan ishonchning pasayishi kabi omillar shaxsiy sug'urta bozorining rivojlanishini susaytirdi. Uzoq muddatli sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talab sezilarli darajada kamaydi va mazkur yo'nalish deyarli faoliyat yuritmayapti.

Shu bilan birga, shaxsiy sug'urta moliya bozorining ajralmas tarkibiy

qismlaridan biri sifatida, mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Bir tomondan, u fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini kuchaytiradi, ularning salomatligi, mehnatga layoqati va hayotiga taalluqli xavflarni kamaytiradi. Ikkinchi tomondan, to'plangan sug'urta mukofotlari orqali sug'urta kompaniyalari uzoq muddatli investitsion resurslarni shakllantiradi va bu mablag'lar iqtisodiyotning strategik yo'nalishlariga, xususan, infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va sanoat loyihalariga yo'naltirilishi mumkin.

Material va metod. Shaxsiy sug'urta qildirish o'z tabiati bo'yicha uzoq muddatli hisoblanadi va sug'urta qiluvchini yoki sug'urta polisini o'zgartirish sug'urta qildiruvchiga yoki sug'urta qildirilgan moliyaviy yo'qotishlarga ziyon yetkazishi mumkin. Shaxsiy sug'urta qildirish polislarining ko'plab xaridorlari ularning majburiyatlari to'liq bajarilishi bilan shartnomani tezroq yoddan chiqarish va eslamaslikka intiladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzish jarayoni ketma-ketligi

Sug'urtalangan shaxs haqida ma'lumot

sug'urta (sug'urta xodisasi) sodir bo'lgan taqdirda sug'urtalangan shaxsning hayotida amalga oshirilayotgan xodisaning mohiyati haqida


Sug'urta summasi miqdori haqida

Sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati to'g'risida

Sug'urta shartnomasi muddati haqida

1-rasm. Shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzish jarayoni ketma-ketligi¹.

Shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchilar va sug'urtalovchi o'rtasida 1-rasmda keltirilgan ketma-ketlik shartlar bo'yicha kelishuvga erishish kerak.



2-rasm. Shaxsiy sug'urta, odatda, fuqarolarni quyidagi xavf-xatarlardan himoyalaniishi.²

2-rasmda qayd etilgan hamma holatlarda sug'urta hodisasini ro'y berishi sug'urtalovchining yoki sug'urtalangan shaxsning daromadini kamayishiga sabab bo'ladi.

Shuni e'tirof etish mumkinki, bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda shaxsiy sug'urtaning mohiyatini aniqlash imkoniyatlari sezilarli darajada ilmiy ishlar qilinib, ko'plab ta'riflar ishlab chiqildi. Iqtisodchi olimlar tomonidan umum'etirof etilgan holatlarni hisobga olgan holda, dastlab shaxsiy sug'urtaning mohiyati ifodalangan ta'riflarni keltiramiz va so'ng ularni oz imkoniyatimiz doirasida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Jumladan, E.G.Knyazeva shaxsiy sug'urtaning jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, "shaxsiy sug'urta tizimi iqtisodiy beqarorlik va kutilmagan moliyaviy zararlardan himoya

qiladi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy himoya va xavf-xatarlarni boshqarishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi" [3] ta'kidlab o'tgan.


Bizning fikrimizcha kutilmagan moliyaviy zararga qo'shimcha jamg'arma shakllantirilib, kutilmagan moliyaviy yoqotishlarni oldini olishga xizmat qiladi. Hayot, sog'liq va mehnat qobiliyati har bir inson uchun eng muhim tushunchalardir. Inson hayotidagi barcha manfaatlar shu jihatlariga bog'liqdir.

E.G. Marcheva shaxsiy sug'urta bo'yicha o'z fikrlarini taqdim etgan olimlardan biridir. Uning fikrlariga ko'ra, "shaxsiy sug'urta tizimi nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, balki ijtimoiy barqarorlikni yaratishning muhim vositasi hisoblanadi. Shuningdek uning fikriga ko'ra shaxsiy sug'urta tasnifi turli mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

¹ Taniyev A.B. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. – Samarqand.: "SamDu", nashriyoti 2022. 70-b.

² X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'Kenjayevlar "Sug'urta ishi" O'quv qo'llanma. – Toshkent.: "Iqtisod-moliya 2014. 96-b.

Shaxsiy sug'urta tasnifi turli mezonlar



3-rasm. Shaxsiy sug'urta tasnifi turli mezonlar.³

Shaxsiy sug'urta turlari ko'p va xilma-xildir, chunki ular turli xil xavf-xatarlarni, ehtiyojlarni va shaxsiy holatlarni qamrab oladi" deb ta'kidlab o'tgan.

Natijalar. Shaxsiy sug'urta jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, to'plangan

mablag'lar orqali investitsion faoliyatni ham rag'batlantiradi. Shu bois, u nafaqat ijtimoiy himoya vositasi, balki iqtisodiy o'sish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashning muhim omili sifatida qaraladi.

Tarkibiy element	Ta'rif
<i>Sug'urtalovchi</i>	Sug'urta xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxs
<i>Sug'urtalanuvchi</i>	Hayoti, sog'ligi yoki mehnatga layoqati sug'urtalangan shaxs
<i>Sug'urta obyekti</i>	Insonning hayoti, salomatligi yoki mehnatga layoqati
<i>Sug'urta hodisasi</i>	To'lov asosini belgilovchi fakt (vafot, kasallik, baxtsiz hodisa)
<i>Sug'urta mukofoti</i>	Sug'urtalanuvchi tomonidan to'lanadigan mablag'
<i>Sug'urta to'lovi</i>	Hodisa sodir bo'lganda kompaniya tomonidan to'lanadigan mablag'

4-rasm. Shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy va tashkilotiy tuzilmasi⁴

Shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy va tashkilotiy tuzilmasi uni tashkil etuvchi asosiy elementlar orqali aniqlanadi. Har bir tarkibiy qism – sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, sug'urta obyekti, sug'urta hodisasi, mukofoti va to'lovi – o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, sug'urta mexanizmining to'laqonli ishlashini ta'minlaydi. Ushbu tizim fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnatga layoqatini moliyaviy himoya qilishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni

mustahkamlash va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, shaxsiy sug'urtaning bu tuzilmasi zamonaviy sug'urta tizimining asosi sifatida e'tiborga loyiqdir.


O'zbekiston sug'urta tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega: davlat tomonidan tartibga solinadigan, lekin asta-sekin bozor tamoyillariga asoslangan ochiq va raqamlashtirilgan modelga o'tayotgan sohaga aylanmoqda. 2021–2025 yillarda

³ Марчева И.А. Страхование:/ Учебно-методическое пособие. - Нижний Новгород, 2012., С. 81-82.

⁴ Tadqiqotchi tomonidan mustaqil tayyorlandi

qabul qilingan islohotlar doirasida xorijiy investorlar uchun ochiqlik, innovatsion yechimlarni joriy etish va bozorni liberallashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu

bilan birga, ijtimoiy sug'urtaning keng qamrovi hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, aholining shaxsiy sug'urtaga bo'lgan talabi ortib borayotganligi soha rivojining istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.



5-rasm. O'zbekiston sug'urta tizimining asosiy xususiyatlari⁵

O'zbekiston sug'urta tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiyalash yo'lidan bormoqda. Bozorni tartibga solishning markazlashtirilgan tizimi – Sug'urta faoliyatini tartibga solish agentligi orqali amalga oshirilayotgani soha ustidan nazoratni kuchaytirib, ishonchli institutlar faoliyatini rag'batlantirmoqda. 2021–2025 yillarga mo'ljallangan islohotlar dasturi doirasida bozorning liberallashuvi, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratish bo'yicha sezilarli siljishlar kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, sug'urtaning ijtimoiy himoya funksiyasi hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, aholining shaxsiy sug'urtaga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgani ushbu sohaning istiqbolli yo'nalish ekanligini ko'rsatmoqda. Kelgusida mazkur tizimni yanada takomillashtirish, aholining

ishonchini oshirish va raqobatbardosh muhitni shakllantirish orqali sug'urta sektori mamlakat iqtisodiyotining barqaror tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.


Germaniya sug'urta tizimi dunyodagi eng rivojlangan va samarali ishlaydigan modellardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizimda majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bir-birini to'ldiruvchi tarzda integratsiyalashgan bo'lib, aholining turli qatlamlarini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoya qilishga xizmat qiladi. Mamlakatda sug'urta sohasi kuchli qonunchilik asosida tartibga solinadi va Federal moliyaviy nazorat idorasi — BaFin tomonidan qat'iy nazorat qilinadi. Bu esa ishonchli va barqaror sug'urta muhitini shakllantirishga imkon beradi. Germaniyada majburiy tibbiy sug'urta tizimi orqali aholining aksariyati davlat yoki xususiy sug'urta bilan qamrab

⁵ <https://napp.uz/uz/category/ochiq-ma-lumotlar> sayt ma'lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tayyorlandi.

olinadi, yuqori daromadli guruhlar esa ixtiyoriy xususiy sug'urtadan foydalanadi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar –

xususan insurtech xizmatlari – orqali sug'urta sohasining samaradorligi va foydalanuvchilar uchun qulayligi yanada oshirilmoqda.

Germaniyada majburiy va ixtiyoriy sug'urta integratsiyasi



6-rasm. Germaniyada majburiy va ixtiyoriy sug'urta integratsiyasi⁶


Germaniyada majburiy va ixtiyoriy sug'urta tizimlarining integratsiyasi yuqori darajadagi tartibga solinish, ijtimoiy adolat va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Majburiy tibbiy sug'urta tizimi orqali aholining keng qatlami ijtimoiy himoya bilan qamrab olinadi, bu esa sog'liqni saqlash xizmatlarining uzluksizligi va sifatini kafolatlaydi. Shu bilan birga, yuqori daromadli shaxslar va tadbirkorlar uchun mo'ljallangan xususiy sug'urta tizimi tanlov imkoniyatini oshiradi va raqobat muhitini yaratadi. Germaniya sug'urta tizimining yuksak darajadagi raqamlashtirilishi va innovatsion yondashuvlar, xususan insurtech xizmatlari, foydalanuvchilarga qulaylik va samaradorlikni ta'minlamoqda. Bu esa mamlakat sug'urta bozorining barqaror va ilg'or rivojlanishini ta'minlaydi.

Yaponiya sug'urta tizimi keng qamrovli ijtimoiy himoya modeliga

asoslangan bo'lib, aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi ilg'or tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim Sog'liqni saqlash, Mehnat va Farovonlik vazirligi tomonidan markazlashgan tartibda boshqariladi va qat'iy nazorat ostida yuritiladi. Tibbiy sug'urta bilan aholining deyarli 100 foizi qamrab olingan bo'lib, bu yapon jamiyatida sog'liqni saqlash xizmatlarining ommaviy va teng huquqli foydalanilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, qo'shimcha ixtiyoriy sug'urtalarning — hayot, nogironlik va pensiya sug'urtasi kabi turlarning keng rivojlanishi fuqarolarga yanada ko'proq ijtimoiy va moliyaviy himoya imkonini beradi. Moliyaviy mexanizm sifatida davlat subsidiyalari orqali kambag'allik darajasidagi aholiga qo'llab-quvvatlov berilishi, tizimning inklyuziv va

⁶ www.bafin.de sayt ma'lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tayyorlandi.

adolatli bo'lishini ta'minlovchi muhim jihat hisoblanadi.




6-rasm. Yaponiya keng qamrovli ijtimoiy sug'urta ⁷

Yaponiya tajribasi ijtimoiy sug'urta sohasida yuqori darajadagi qamrov, adolat va barqarorlikni ifodalaydi. Mamlakatda sog'liqni saqlash, mehnat va farovonlik sohaslarini birlashtirgan yagona tizim orqali shaxsiy sug'urta faoliyati samarali tarzda tartibga solinadi. Aholining 100 foizini tibbiy sug'urta bilan qamrab olish orqali yapon jamiyati sog'liqni saqlash xizmatlariga teng va uzluksiz kirishni kafolatlaydi. Shu bilan birga, ixtiyoriy sug'urtalarning keng rivojlanishi fuqarolarning individual ehtiyojlarini qondirish va qo'shimcha xavflardan himoyalashiga imkon yaratadi. Moliyaviy mexanizm sifatida davlat subsidiyalari orqali aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash esa tizimning inklyuziv va insonparvarlik xususiyatini namoyon etadi. Yaponiya modeli boshqa davlatlar uchun ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirishda muhim namuna bo'la oladi.

AQSH sug'urta tizimi bozor tamoyillariga asoslangan yondashuvi bilan

ajralib turadi. Mamlakatda sug'urta sohasi asosan shtatlar darajasida tartibga solinadi, federal hukumat esa umumiy nazorat va yirik islohotlar orqali tizimni yo'naltirib boradi. Sug'urta xizmatlarini asosan xususiy kompaniyalar ko'rsatadi, bu esa raqobatni kuchaytiradi va xizmatlar xilma-xilligini oshiradi. 2010 yilda qabul qilingan Affordable Care Act (Obamacare) orqali tibbiy sug'urta tizimida muhim islohotlar amalga oshirilib, aholining sug'urta qamrovi kengaytirildi. So'nggi yillarda esa innovatsion texnologiyalar - jumladan, telemeditsina, onlayn polis xaridi va blokcheyn texnologiyasi - sug'urta sohasining raqamli transformatsiyasini jadallashtirmoqda. Bu esa AQSH sug'urta bozorining moslashuvchan, zamonaviy va iste'molchi ehtiyojlariga mos tizimga aylanishiga xizmat qilmoqda.

⁷ www.mhlw.go.jp_sayt ma'lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tayyorlandi.



7-rasm. AQSHda bozor tamoyillariga asoslangan yondashuv⁸

AQSH sug'urta tizimi bozor tamoyillariga asoslangan yondashuvi bilan ajralib turadi va xususiy sektorning ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Sug'urta faoliyati asosan shtatlar darajasida tartibga solinadi, bu esa tizimga moslashuvchanlik va hududiy o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Federal darajadagi islohotlar, xususan Affordable Care Act (Obamacare), sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va aholining sug'urtalanganlik darajasini oshirishga xizmat qilgan. Raqobatbardosh bozor muhiti xususiy sug'urta kompaniyalarining innovatsion texnologiyalarni tezda joriy etishiga turtki bo'lmoqda. Jumladan, telemeditsina, onlayn polis xaridi va blokcheyn texnologiyalari sug'urta xizmatlarining qulayligi, shaffofligi va samaradorligini oshirmoqda. Umuman olganda, AQSH modeli raqobat, innovatsiya va iste'molchi ehtiyojlariga moslashuvchanlikni o'zida mujassam etgan sug'urta tizimi hisoblanadi.

Munazara. Bir tomondan, shaxsiy sug'urta fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnatga layoqati bilan bog'liq moliyaviy xavflarni kamaytiradi. Bu orqali davlatning ijtimoiy yuklamalari yengillashadi, aholi ijtimoiy jihatdan barqaror bo'ladi. Davlat byudjeti uchun ortiqcha xarajatlar kamayadi, ijtimoiy himoya tizimi esa diversifikatsiyalanadi.

Boshqa tomondan, shaxsiy sug'urtaga ishonch darajasining pastligi, sug'urta xizmatlari haqidagi xabardorlikning yetarli emasligi va sug'urta madaniyatining rivojlanmaganligi bu yo'nalishda sezilarli to'siqlarga olib kelmoqda. Shu bois, ayrim ekspertlar ushbu sohani rivojlantirish uchun avvalo infratuzilmani, huquqiy asoslarni va inson resurslarini mustahkamlash kerakligini ta'kidlaydilar.

U.Karimov fikricha, bugungi kunda O'zbekistonda shaxsiy sug'urta bozori asosan baxtsiz hodisalar va hayotni sug'urtalash bilan cheklanib qolgan. Diversifikatsiyalash darajasi past, sug'urta

⁸ www.naic.org_sayt ma'lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tayyorlandi.

kompaniyalarining aksariyati qisqa muddatli daromadlarni ko'zlagan holda ishlamoqda.[4]

Boshqa qarashlarga ko'ra, aynan bu holat bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatni kuchaytirish va xizmatlar sifatini oshirish uchun imkon yaratadi. Yangi texnologiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy qilinsa, sug'urta bozori ham kengayadi, ham barqarorlashadi.

T.V. Prokopeva fikriga ko'ra "o'lim, mehnat qobiliyatini yo'qotish va sog'lig'ini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydigan sug'urta tarmog'i" [5] deb ta'kidlagan.

Shuningdek, T.A.Fedarovanning nazarida hayot sug'urtasi deyilganda "sug'urtalangan shaxs vafot etgan yoki muayyan muddatga qadar tirik qolgan holatda, to'langan sug'urta mukofotlari o'rniga sug'urta qildiruvchi yoki u tomonidan tayinlangan shaxsga sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasini to'lash kafolatini berishi"[6] ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Shaxsiy sug'urtaning rivojlanishi dunyo davlatlarida turli iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarga bog'liq tarzda shakllanmoqda. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali shaxsiy sug'urta

tizimini barpo etishda quyidagi yondashuvlar muhim rol o'ynaydi:

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi optimal muvozanat – Germaniya, Shvetsiya va Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, aralash model asosida ishlovchi sug'urta tizimlari ijtimoiy himoya va tijorat manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda, aholining keng qatlamini qamrab olishga xizmat qilmoqda.

Sug'urta bozorida raqobat va texnologik innovatsiyalar – AQSh tajribasida shaxsiy sug'urta yuqori raqobat muhitida faoliyat yuritadi, bunda kompaniyalar xizmat sifatini oshirish, mahsulotlarni shaxsiylashtirish va raqamli platformalar orqali mijozlarga qulaylik yaratishga intilmoqda.

Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli – Skandinaviya davlatlari, xususan Shvetsiya tajribasida, shaxsiy sug'urta davlatning ijtimoiy siyosati tarkibida integratsiyalashgan bo'lib, fuqarolarning salomatligi, mehnatga layoqati va hayoti davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan tizim bilan kafolatlanadi.

Sug'urta savodxonligini oshirish va ishonch muhitini mustahkamlash – Xorijiy mamlakatlarda aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan munosabatini yaxshilash uchun tizimli ravishda moliyaviy savodxonlik dasturlari yo'lga qo'yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Taniyev A.B. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. – Samarqand.: "SamDu", nashriyoti 2022. 70-b.
2. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'Kenjayevlar "Sug'urta ishi" O'quv qo'llanma. – Toshkent.: "Iqtisod-moliya 2014. 96-b.
3. Е. Г. Князевой. Страхование:/ Учебник. - Екатеринбург Издательство Уральского университета, 2019,. С. 63-34.
4. Karimov, U. (2021). "Sug'urta bozorining rivojlanish istiqbollari va tahlili: O'zbekiston tajribasi". *Iqtisodiyot va moliya jurnali*.



5. Марчева И.А. Страхование:/ Учебно-методическое пособие. - Нижний Новгород, 2012,. С. 81-82.
6. Федарова А.Т. ва бошқалар. Страхование (2-нашр). М.:Магистр, 2006. 251 б.
7. [https://napp.uz/uz/category/ochiq-ma-lumotlar sayt ma'lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tayyorlandi](https://napp.uz/uz/category/ochiq-ma-lumotlar-sayt-ma-lumotlari-asosida-tadqiqodchi-tomonidan-tayyorlandi).
8. www.bafin.de sayt ma'lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tayyorlandi.
9. www.mhlw.go.jp sayt ma'lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tayyorlandi.
10. www.naic.org sayt ma'lumotlari asosida tadqiqodchi tomonidan tayyorlandi.